



# 2021- yil yanvar-noyabr oylarida ANDIJON VILOYATIDA xizmatlar sohasining rivojlanishi






**2021- yil yanvar-noyabr**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi, milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi, xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.





**2021- yil yanvar-noyabr**


**Dastlabki ma'lumotlar**



**Xizmatlar sohasi** bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yil yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **13 702,2** mlrd. so'mga yetdi. Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **122,3 %** ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-oktabr oylarida)





# ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



**2021- yil yanvar-noyabr**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-noyabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>13 702,2</b>	<b>122,3</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	589,7	111,2
Moliyaviy xizmatlar	3 132,8	154,6
Transport xizmatlari	2 839,8	114,6
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	2 775,3	113,4
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	221,3	110,3
Savdo xizmatlari	4 120,7	112,3
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	380,3	117,2
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	553,8	122,9
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	227,3	110,2
Ijara xizmatlari	296,9	116,3
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	304,9	122,0
Shaxsiy xizmatlar	613,7	118,6
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	92,8	99,9
Boshqa xizmatlar	328,3	131,1





**2021- yil yanvar-noyabr**

**Dastlabki ma'lumotlar**

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

**Nisbatan yuqori ulush**

**Nisbatan past ulush**





**2021- yil yanvar-noyabr**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2021- yil yanvar-noyabr oylarida ularning ulushi **30,1 %** ni tashkil etdi.

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmida eng past o'sish qayd etilib, ularning ulushi atigi **0,7 %** ga yetgan.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-noyabr oylarida savdo xizmatlari umumiy hajmda **32,0 %** ni tashkil etdi. 2020- yilning shu davrida Me'morchilik sohasidagi xizmatlarining ulushi ham eng kichik bo'lgan – **0,8 %**.

2021- yil yanvar-noyabr oylarida yuqori o'sish moliyaviy xizmatlari (**154,6 %**), boshqa xizmatlari (**131,1 %**), ta'lim sohasida (**122,9 %**) qayd etildi.


**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-noyabr oylarida Moliyaviy xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi (**122,0 %**).



**2021- yil yanvar-noyabr**

**Dastlabki ma'lumotlar**

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, % da





**2021- yil yanvar-noyabr**

**Dastlabki ma'lumotlar**



**Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdogo bo'linadi.

2021- yil yanvar-noyabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **30,1 %** ni tashkil etdi, bu esa **4 120,7** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-noyabr oylarida ularning hajmi **3 309,7** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmining **32,0 %** iga to'g'ri kelgan.

## **Savdo xizmatlari**

**2020- yil**

**yanvar-noyabr**

Xizmatlar hajmi  
**3 309,7 mlrd. so'm**

O'sish sur'ati  
**100,0 %**

Ulushi  
**32,0 %**



**2021- yil**

**yanvar-noyabr**

Xizmatlar hajmi  
**4 120,7 mlrd. so'm**

O'sish sur'ati  
**112,3 %**

Ulushi  
**30,1 %**





## 2021- yil yanvar-noyabr

## Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-noyabr oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rttdan uch qismini, aniqrog'i **83,7 %** ini tashkil etdi.

### Savdo xizmatlari tarkibi

(2021- yil yanvar-noyabr oylarida)

**Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda**



**Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)**

**7,3 %**



**Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar**

**83,7 %**

**9,0 %**





**2021- yil yanvar-noyabr**

**Dastlabki ma'lumotlar**



**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobi bo'yicha olinadi.

## Moliyaviy xizmatlar

*(2021- yil yanvar-noyabr oylarida)*



Moliyaviy xizmatlar hajmi **3 132,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-noyabr oylarida ularning hajmi **1 999,1** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

Ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **22,9** % ni tashkil etdi

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-noyabr oylarida ularning ulushi **19,3** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini **1 133,6** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

Moliyaviy xizmatlarning o'sishi **154,6** % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-noyabr oylarida ularning o'sish sur'ati **122,0** % ga yetgan.



## **2021- yil yanvar-noyabr**


## **Dastlabki ma'lumotlar**

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlarda moliyaviy xizmatlarning ulushi **65,7 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning noyabr oyi yakuniga ko'ra sug'urta xizmatlarining ulushi **3,5 %** oralig'ida qayd etildi.

## **Moliyaviy xizmatlar tarkibi**

*(2021- yil yanvar-noyabr oylarida)*







**2021- yil yanvar-noyabr**

**Dastlabki ma'lumotlar**



Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2021- yil yanvar-noyabr oylarida)

**2020- y. yanvar-noyabr**

**2021- y. yanvar-noyabr**

523,2 mlrd. so'm

Xizmatlar hajmi

589,7 mlrd. so'm

111,0 %

O'sish sur'ati

111,2 %

5,1 %

Jami hajmdagi ulushi

4,3 %

Hajmning o'sishi

66,4 mlrd. so'mga






## 2021- yil yanvar-noyabr

## Dastlabki ma'lumotlar

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshi aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, **94,6 %** ni tashkil etdi.

### Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

2021- y. yanvar-noyabr



**Telekommunikatsiya xizmatlari**



**Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari**



**Noshirlik xizmatlari**



**Kompyuter dasturlashtirish xizmatlari**



**2021- yil yanvar-noyabr**

**Dastlabki ma'lumotlar**



Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

## Ta'lim sohasidagi xizmatlar

**406,3**  
mlrd. so'm

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi**

**553,8**  
mlrd. so'm

**2020- y. yanvar-noyabr**



**2021- y. yanvar-noyabr**

**99,5 %**

**O'sish sur'atlari, % da**

**122,9 %**

2021- yil yanvar-noyabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **553,8** mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi **4,0 %** ni tashkil etdi. 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **122,9 %** ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida xizmatlar hajmi **406,3** mlrd. so'mga teng bo'lgan. 2019- yilga nisbatan o'sish darajasi **99,5 %** da qayd etilgan.



**2021- yil yanvar-noyabr**

**Dastlabki ma'lumotlar**

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm

177,9

221,3

2020- yil  
yanvar-noyabr

2021- yil  
yanvar-noyabr



O'sish  
sur'ati, % da

88,6

110,3

2020- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **43,4** mlrd. so'mga ortdi.



**2021- yil yanvar-noyabr**

**Dastlabki ma'lumotlar**

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

2021- y. yanvar-noyabr

**92,9 %**

**7,1 %**



**7,3 %**

**92,7 %**

2020- y. yanvar-noyabr

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar**

**Yashash bo'yicha xizmatlar**

2021- yil yanvar-noyabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **92,9 %** bilan ustunlik qildi.





**2021- yil yanvar-noyabr**

**Dastlabki ma'lumotlar**



**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiyalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

**2020- yil  
yanvar-noyabr**

**2021- yil  
yanvar-noyabr**

180,3  
mlrd. so'm

**Xizmatlar  
hajmi**

227,3  
mlrd. so'm

90,6 %

**O'sish  
sur'ati**

110,2 %

1,7 %

**Xizmatlarning  
jami hajmidagi  
ulushi**

1,7 %






**2021- yil yanvar-noyabr**

**Dastlabki ma'lumotlar**



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

## Shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, % da (2021- yil yanvar-noyabr oylarida)



2021- yil yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulush Andijon shahriga tegishli – **32,4 %** (2020- yilda **31,8 %**). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ulushlari Ulug'nor tumanida **2,5 %** (2020- yilda **2,6 %**) qayd etildi.



## 2021- yil yanvar-noyabr

## Dastlabki ma'lumotlar

Shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan xizmatlar (2021- yil yanvar-noyabr )	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2021- y.	2020- y.
<i>Andijon viloyati</i>	<b>13702,2</b>	<b>122,3</b>	<b>103,8</b>
<i>Shaharlar:</i>			
<i>Andijon sh</i>	4443,3	124,8	106,2
<i>Xonobod sh</i>	451,8	118,6	100,5
<i>Tumanlar:</i>			
<i>Oltinko'l</i>	604,0	122,0	100,9
<i>Andijon</i>	799,9	122,3	102,1
<i>Baliqchi</i>	727,5	122,5	100,5
<i>Bo'ston</i>	362,0	117,0	100,3
<i>Buloqbo'shi</i>	515,8	121,1	100,5
<i>Jalaquduq</i>	600,6	120,1	101,1
<i>Izboskan</i>	689,8	121,8	101,6
<i>Ulug'nor</i>	341,9	117,3	100,2
<i>Qo'rg'ontepa</i>	764,9	122,7	101,3
<i>Asaka</i>	859,6	123,1	102,5
<i>Marhamat</i>	533,8	119,0	100,7
<i>Shahrixon</i>	807,1	122,9	101,7
<i>Paxtaobod</i>	659,2	118,8	101,0
<i>Xo'jaobod</i>	541,0	121,5	100,6

*\*) hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda.*



**2021- yil yanvar-noyabr**

**Dastlabki ma'lumotlar**



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

## Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

**Xizmatlar hajmi**

**Hajmning o'sishi**

**4 265,0  
ming so'm**

**977,4 ming  
so'mga**

2021- yil yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **4 265,0** ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **119,9 %** ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:**

2020-yilning yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 287,6** ming so'mni tashkil etgan.

**119,9 %**

**O'sish sur'ati**





**2021- yil yanvar-noyabr**

**Dastlabki ma'lumotlar**



**Xizmatlar sohasi** xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

**2021- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

**Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni**

**25 314 birlik**

**2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari**

**110,9 %**



**2 496 birlikga**

**2020- yilning mos davriga nisbatan ularning sonini o'sishi**

**62,7 %**

**Ularning umumiy sonidagi ulushi**




## 2021- yil yanvar-noyabr

## Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1-dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **62,7 %**, sanoat **22,9 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **6,5 %** ga yetdi. Qurilish sohasi **7,9 %** ga to'g'ri keladi.

### 2021- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **62,0 %**, sanoat **22,9 %**, qurilish **8,4 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **6,7 %** ni tashkil etgan.




**2021- yil yanvar-noyabr**

**Dastlabki ma'lumotlar**



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylandi, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.


## Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi, 65,2 % da



**65,2 %**

2021- yil yanvar-noyabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **65,2 %** ni tashkil etdi.

## 2021- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2021- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissi **78,5 %** ga to'g'ri keldi.

**Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi.**

**Tel.: 74-228-30-83**